



## OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI - TALABA-YOSHLAR MA'NAVIY-AXLOQIY SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH SHARTI SIFATIDA

**Kdirniyazova O.A.**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali  
mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so'zlar:** globallashuv, axborot, ommaviy axborot vositalari, ma'naviyat, radio, televideniye, mafkuraviy immunitet, internet, ijtimoiy tarmok, virtual axborot maydoni.

**Ключевые слова:** глобализация, информация, СМИ, духовность, радио, телевидение, идеологический иммунитет, Интернет, социальная сеть, виртуальное информационное пространство.

**Key words:** globalization, information, mass media, spirituality, radio, television, ideological immunity, Internet, social network, virtual information space.

### **РЕЗЮМЕ:**

Mazkur maqola mazmuni OAVda talaba-yoshlarlar ma'naviyatini rivojlantirishga karatilgan mavzular samaradorligini oshirish, talaba-yoshlarning ma'naviy extiyojlariga mosligi, mavzular rang-barangligi, tarbiyaviy ishlar mazmuniga uyg'unlik, talaba-yoshlarning mediasavodxonligini rivojlantirish, kontentning talaba-yoshlarlar yosh xususiyatlariga mosligi kabi mediapedagogik talablar asosida takomillashtirishga qaratilgan.

### **РЕЗЮМЕ:**

Содержание данной статьи основано на медиапедагогических требованиях, таких как повышение эффективности тем, направленных на развитие духовности учащихся и молодежи в средствах массовой информации, соответствие духовным запросам учащихся и молодежи, разнообразие тем, гармония с содержанием воспитательной работы, развитие медиаграмотности студентов и молодежи, соответствие содержания возрастным особенностям студентов и молодежи.

### **SUMMARY:**

The content of this article is based on media pedagogical requirements, such as increasing the effectiveness of topics aimed at developing the spirituality of students and youth in the media, compliance with the spiritual needs of students and youth, a variety of topics, harmony with the content of educational work, developing media literacy of students and youth, compliance of the content with the age characteristics of students and youth.

Talaba-yoshlar hozirgi kunda elektron ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalana olishadi. Ular asosan uy sharoitida, bo'sh vaqtlarini televizorlar,



planshetlar, mobil telefonlar va kompyuterlar yonida o'tkazadilar. Talaba-yoshlarni va hozirgi kun yoshlarini texnologiya kun tartibida bo'lgan avlod desak adashmaymiz. Shuning uchun bugun biz televizor o'zimizning talaba-yoshlar, farzandlarimiz uchun foydali tomonlariga e'tibor qaratmoqchimiz, har narsaning me'yori yaxshi bo'lgani kabi televizor ko'rishning ham o'z chegarasi bor.

Talaba-yoshlar uchun televizorning foydali tomonlarini aytib o'tadigan bo'lsak, avvalo televizor ularning ijobiy qadriyatlarini va ko'nikmalarini rivojlantiradi, savodli qiladi. Televizorda yosh talabalar va yoshlar uchun maxsus dasturlar asosan ularni rag'batlantirish, nutqini rivojlanish tushunchalari, qadriyatlari va ko'nikmalarini o'rgatishga bag'ishlangan. Do'stlik, oila, hamdardlik, hamjihatlik, hurmat, madaniy farqlar, atrof-muhitga hurmat, sog'lom odatlarni talabalar ongiga singdiradi. Bularning barchasi jamiyatimizda juda zarur bo'lgan qadriyatlar hisoblanadi. Bu ularga uydan chiqmasdan dunyoni ko'rish imkoniyatini beradi. Televizor tufayli ular boshqa madaniyatlarni, olis joylarni, o'rmonlarni va dengizlarni, hatto koinotni ko'rishlari mumkin. Bu ularga dunyoni kengligi to'g'risida bilishga yordam beradi. Ularning qiziqishini oshiradi. Ular dunyo haqida qanchalik ko'p ma'lumotlarni bilishsa, shuncha kamlik qiladi. Talaba-yoshlar aniq bir narsaga qiziqishlari va bu haqda ko'proq bilmoqchi bo'lishlari mumkin. Ular axborotni iste'mol qiluvchilardir va ular yangi narsalarni o'rganishni yaxshi ko'radilar. Televizor orqali talabalarni o'qish savodxonligi shakllanadi. Talaba-yoshlar o'qishni albatta o'yin, ibrat va qo'shiq orqali o'rganadilar. Talaba-yoshlar televizordagi dasturlar orqali o'zining og'zaki nutqini rivojlaantiradi, tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadi, nutq madaniyatini tushunadi hamda qo'shimcha sifatida ingliz tilini, raqamlarni, harflarni, she'rlarni o'qishni, ertaklarni, raqsga tushishni ... o'rganishadi. Televizor ularning tasavvurlarini rivojlantiradi. Talaba-yoshlar albatta televizorni ko'rish orqali o'z tasavvurlarini shakllantiradi. Talabalar uchun bu jarayonda ota-ona va o'qituvchi nazorati kerak bo'ladi. Har bir o'qituvchi OTMda televizorni, ota-ona esa uyda birgalikda talabalar bilan ko'rishlari zarur. Chunki, unda berilgan ma'lumotlar va yangiliklarni, bilimlarni talabalar o'zlaricha tahlil qilishlari mumkin. Shuning uchun ham o'qituvchilar va ota-onalar ularni kuzatib borayotgan ma'lumotlarini ijobiy tahlil qilib berishlari kerak. Televizordagi rang-baranglik talaba-yoshlarni o'ziga tortadi. Ularni qiziqtiradi. Talabalar televizor orqali ma'naviyat va madaniyatni, odob-ahloqni, turli xil o'qish ko'nikmalarini o'rganadilar. Bu ularni diqqatlarini jamlashga majbur qiladi va ularni yanada erkinroq mustaqil fikrlay olishlariga yordam beradi. Oilaviy ovqatlanish paytida esa televizorni o'chirib qo'yish tavsiya etiladi. Oilaviy tushlik va kechki ovqat oila a'zolari o'rtasidagi aloqani yaxshilash uchun ideal imkoniyatdir. [2, 3, 4].

Har bir narsaning yaxshi va yomoni bo'lgani kabi, televizorning ham salbiy tomonlari mavjud. Zamonaviy insonlar o'z hayotini televizorsiz tasavvur qila olmaydi. Har bir uyda bir nechta televizorga ega bo'lish endi noyob narsa emas. Ko'pincha, deyarli har kuni talabalar bo'sh vaqtlarini teleko'rsatuvlarni tomosha qilish bilan o'tkazadi. Televizor ularning hayotiga qanday ta'sir qiladi? degan savol tug'uladi. Ko'pgina kattalar televizor ekrani oldida yoshlarning xavfsizligiga ishonishadi. Bu qarash noto'g'ri va xavfli hisoblanadi. Televizorni har kuni tomosha qilish bolada ekran oldida befoyda o'tirish va ko'rsatuvlar mazmunidan qat'iy nazar, bu haqda passiv fikr yuritish odatini shakllantirishga yordam beradi. Shunday qilib, bolaga o'yinlar, muloqot, jismoniy va kognitiv faoliyat uchun ajratilgan vaqt yo'qoladi. Televizor oila a'zolari o'rtasidagi muloqotni buzishi mumkin. Ota-onalar yoshlarga kamroq e'tibor berishadi, ular bilan va o'zaro kamroq gaplashadilar. Televizor oldida uzoq vaqt o'tirish bolaning sog'lig'iga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin (bu ko'rishning sezilarli darajada yomonlashishiga, semirishning shakllanishiga, immunitetning pasayishiga va boshqalarga olib kelishi mumkin). Ko'ngilochar filmlar va dasturlarni tomosha qilishda talabalar aqliy harakatlar qilmaydi, shu sababli ularning tushunish darajasi pasayadi, uning idrokining keskinligi va mantiqiy fikrlash qobiliyati pasayadi. Televideniya tarbiyasi orqali mustaqil, ota-ona va o'qituvchi nazoratisiz tarbiyalangan yoshlar o'z fikrlarini yaxshi ifoda etmaydi, nutqi zaif va bir xilda, so'z boyligi kam bo'ladi. Televizor yoshlarning e'tiborini pasaytiradi va ularning giperaktivligiga hissa qo'shadi. Miltillovchi televizor ramkalari va doimiy harakatlanuvchi narsalar bolaga uzoq vaqt davomida diqqatini qaratish imkoniyatini bermaydi. Giperaktiv bola o'z xatti-harakati bilan ekrandagi tasvirlarning o'zgaruvchanlik tezligini ko'chiradi. Teleko'rsatuvlarda o'sayotgan yoshlar o'zlarining ijodiy tasavvurlarini, biror narsa bilan mashg'ul bo'lish qobiliyatini va ehtiyojini yo'qotadilar, ular o'yinlar ixtiro qilishni va hikoyalar yozishni to'xtatadilar, ular ijod uchun ko'plab o'yinchoqlar va narsalar orasida zerikishni boshlaydilar, ular yangi va yangi narsalarga qiziqishni to'xtatadilar.

Xulosa qilil aytganda, ommaviy axborot vositalari asosida talaba-yoshlar ma'naviy-axloqiy sifatlarini rivojlantirish davlat va jamiyat taraqqiyotida va ularning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bolalar axloqiy tarbiyalanganlik darajasini aniqlashni bilishi va ularni yechish bo'yicha o'z ishini rejalashtirish, o'quvchi axloqiy tarbiyasini shakllantirishga doir turli usul va vositalardan foydalanishni bilishi kerak: bolalar va ota-onalar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabat usulini o'rnatish lozim.

Mashg'ulotlarda foydalanish uchun har bir mavzu bo'yicha dasturda tadqiqotlar xususiyatidagi topshiriqlar, ma'ruza mavzulari, turli pedagogik masala va topshiriqlarni muhokama qilish uchun savollar berildi.



Maxsus va qo‘shimcha ravishda adabiyotlar tavsiya etilib, bu referatlar, ilmiy ma‘ruzalar, kurs ishlarini bajarishni osonlashtirishga yordam berdi.

Ushbu dastur Buxoro va Guliston davlat universitetida “Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedralarida aprabatsiyadan o‘tkazildi.

Tajriba guruhlarida maxsus seminar yakunida biz “O‘quvchilarni xulq madaniyatini tarbiyalash” mavzusi bo‘yicha foydali pedagogik o‘yin “Pedagogik kengash” shaklida qayta “tekshiruv” o‘tkazdik. Bundan maqsad o‘quvchilarni axloqiy tarbiyalash mazmuni va metodikasi haqidagi bilimlarni takomillashtirishga qaratildi.

Dastlabki tajriba-sinov ishlarining taxliliy xulosalaridan kelib chikib, 12 soatga muljallangan «Talaba -yoshlar ma'naviyatini ommaviy axborot vositalari asosida rivojlantirish» kursining o‘quv dasturi ishlab chiqildi va tajriba guruxlarida amaliyotga joriy etildi.

Ushbu o‘kuv kursining mazmuni «Pedagogika» turkumidagi fanlar mazmuniga singdirilgan bo‘lib, unga ko‘ra, talaba -yoshlar auditoriyasiga doir milliy mediamaxsulotlar (telekursatuvlar, radioeshittirishlar, filmlar, internet xabarlar)ning manbalari aks etgan mavzular asosida talaba -yoshlar ma'naviyati takomillashtirildi. Natijaga erishish maksadida «Pedagogika» turkumidagi fanlar o‘qituvchilari mediabilimlar, mediapedagogik metodikalar bilan kurollantirildi. Yakunlovchi tajriba- sinov bosqichida ommaviy axborot vositalari asosida talaba -yoshlar ma'naviyatini shakllanganlik darajalari, ekspert so‘rovlari, pedagogik kontsirium, ota-onalar bilan mulokot, nazorat savollari, so‘rovnoma, pedagogik kuzatuv, suxbat, intervъyu usullari orkali quyidagilarda aniqlandi. Tajriba-sinov ishlari natijasida respondentlar tomonidan ma'naviy-ma'rifiy kontentlardan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada o‘zgardi.

#### Adabiyotlar:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - T.: «Ma'naviyat», 2008. -114, 116, 119-b.
2. Andreyeva V.Yu. Formirovaniye informatsionnoy kultury uchashixsya pedagogicheskix uchilim, kolledjey.Avtoreferat kand. Ped. Nauk.-Sankt – Peterburg: 2003 – 18s.
3. Begimqulov U.Sh. Mamarajabov M. FLASH MX dasturi va undan ta'limda foydalanish imkoniyatlari. –T.: TDPU, 2006. – 80 b.
4. Ochilidiyev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. - T.: «Muxarrir», 2009.
5. Duronov M., Taylakova Sh.N. Ommaviy axborot vositalari asosida xorijiy tillarni urgatish. // «Yoshlarga chet tillarni urgatishning zamonaviy texnologiyalari» mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. - Toshkent: 2013. - B.40-42.
6. Taylakova Sh.N. Globallashgan axborot sharoitida ukuvchi-yoshlarning Foyaviy-mafkuraviy immunitetini ommaviy axborot vositalari asosida shakllantirish // Zamonaviy ta'lim. -Toshkent: 2015. № 5. - B.3-8.
7. Djurayev R.H., Toyloqov N.I. Axborotlashtirilgan ta'lim muhiti-o'qitish samaradorligini oshirish vositasi // Uzluksiz ta'lim.IMJ. –T.: 2004.-№3.- 3-7 b.
8. Dzyubenko A.A. Новыe informatsionныe texnologii v obrazovanii. VNTITS, 2000 – 104s.
9. EsteyA, MusseauA, KeehnL. Patsiyent ponimayet informatsiyu o zdorovъe.1994.